

**UCHINCHI RENESSANS AVLODNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA TARBIYACHILARNI  
KASBIY MALAKALARINI BAHOLASH  
JO'RAYEVA DILNOZA O'KTAM QIZI**

*Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi. Buxoro davlat pedagogika insituti  
<https://orcid.org/0009-0000-4954-8585>*

**ОЦЕНКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ  
УЧРЕЖДЕНИЙ В ОБРАЗОВАНИИ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСНОГО ПОКОЛЕНИЯ**

*Жўраева Дилноза Ўктам кизи*

*Преподаватель кафедры дошкольного образования. Бухарский государственный педагогический институт*

**EVALUATION OF THE PROFESSIONAL QUALIFICATIONS OF PRESCHOOL EDUCATORS IN THE  
EDUCATION OF THE THIRD RENAISSANCE GENERATION**

*Juraeva Dilnoza Uktam kizi*

*Teacher of the preschool education department. Bukhara State Pedagogical Institute*

*Annotatsiya. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo kengroq doiraga chiqish ehtiyoji, muloqotga kirishishi, o'zligini namoyon qilish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Maktabga qadam qo'yayotgan bugungi kunning bolasidan aniq bilim, fikrlash ko'nikmasi, yangi bilimlarni egallashga tayyorlik, obyektiv olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisalarni mustaqil ravishda tahlil etishi bilan bir qatorda uning maktab ta'limiga shaxsiy-irodaviy, ma'naviy, intellektual, ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarligi talab etiladi. Uchinchi renessans avlodni maktab ta'limiga tayyorlashda tarbiyachilarni kasbiy malakalarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabga qadam qo'yayotgan bugungi kunning bolasidan aniq bilim, fikrlash ko'nikmasini, yangi bilimlarni egallashga tayyorligini, obyektiv olamga moslashish ko'nikmasini, voqea-hodisalarni mustaqil ravishda tahlil etishi bilan bir qatorda uning maktab ta'limiga shaxsiy-irodaviy, ma'naviy, intellektual, ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarligini talab etiladi.*

*Аннотация. Сегодня потребности и интересы детей дошкольного возраста стремительно возрастают. Прежде всего, это потребность выйти на более широкий круг, общаться, выразить свою личность, играть. Сегодняшнему ребенку, поступающему в школу, необходимы четкие знания, навыки мышления, готовность к получению новых знаний, умение адаптироваться к объективному миру, самостоятельный анализ событий, а также личностное, произвольное, духовное отношение к школьному образованию, интеллектуальное, социально-психологическое. требуется подготовка. При подготовке третьего поколения эпохи Возрождения к школьному образованию важна оценка профессиональной квалификации педагогов. Сегодняшнему ребенку, поступающему в школу, необходимы четкие знания, навыки мышления, готовность к получению новых знаний, умение адаптироваться к объективному миру, самостоятельный анализ событий, необходима личностно-волевая, духовная, интеллектуальная, социально-психологическая подготовка.*

*Annotatsion. Today, the needs and interests of children of preschool age are rapidly increasing. First of all, this is the need to reach a wider circle, to communicate, to express one's identity, to play. Today's child entering school needs clear knowledge, thinking skills, readiness to acquire new knowledge, ability to adapt to the objective world, independent analysis of events, as well as a personal, voluntary, spiritual attitude to school education. , intellectual, socio-psychological preparation is required. In preparing the third renaissance generation for school education, it is important to evaluate the professional qualifications of educators. Today's child entering school needs clear knowledge, thinking skills, readiness to acquire new knowledge, ability to adapt to the objective world, independent analysis of events, personal-volitional, spiritual , intellectual, socio-psychological preparation is required.*

*Kalitso'zlar: Maktabgachata'lim,maktab,bolalar,rivojlanish,bilim,ko'nikma,malaka,tarbiyachi.*

*Ключевые слова: Дошкольное образование, школа, дети, развитие, знания, умения, умения, воспитатель.*

*Key words: Preschool education, school, children, development, knowledge, skills, skills, educator.*

Yurtimizda uchinchi renessansni barpo etishda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni keltirib o'tganlar - „Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy tashkilotlarini bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz“, – dedi prezident.

Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berishga, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Ta'lim tashkilotlarining turi sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotida, shubhasiz, ularning har qaysisiga xos, bolalarning tarbiyasi, ta'limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo'nalganligi bilan bog'liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu asnoda tarbiyalanayotgan

bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyati boshqa ta'lim muassasalarida kechadigan jarayonlar boshqalaridan jiddiy farq qiladi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, ta'lim sifatini boshqarishning umumiy nazariy yo'llarini maktabgacha ta'lim amaliyotiga mexanik ravishda ko'chirish mumkin emas. Ular maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining o'ziga xosliklariga mos yangi mazmun bilan to'ldirilishi kerak.

Maktabga qadam qo'yayotgan bugungi kunning bolasidan aniq bilim, fikrlash ko'nikmasini, yangi bilimlarni egallashga tayyorligini, obyektiv olamga moslashish ko'nikmasini, voqea-hodisalarni mustaqil ravishda tahlil etishi bilan bir qatorda uning maktab ta'limiga shaxsiy-irodaviy, ma'naviy, intellektual, ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarligini talab etiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi hususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Shu sababdan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang - barangdir. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa biron ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga (usullarga) tayangan holda kechadi. Metod – grekcha «metodos» so'zidan olingan bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodini (usulini) - ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo'l-yo'rig'i sifatida ta'riflash mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining yangi mazmun asosida tashkil etish, uni yangi pedagogik texnologiya g'oyalari bilan boyitish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tarbiyachilarning yangi avlodini tayyorlash, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda kasbiy malaka hamda faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan ta'limiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati mazmunini aks ettiruvchi zamonaviy talablarga muvofiq yaratilgan manbalar (xususan, turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi ta'limiy va tarbiyaviy ishlar dasturlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirishga oid tavsiyanomalar, ko'rsatmali materiallar va hokazolar) uzluksiz ta'lim tizimining ushbu bosqichida amalga oshirilishi zarur bo'lgan faoliyatning nazariy asoslarini belgilab berishga xizmat qilmoqda. Nazariy manbalarning mazmun jihatidan takomillashtirish, shuningdek, ushbu jarayonga malakali mutaxassislarni jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistondagi ommaviy maktabgacha ta'lim oldida mahorat-bilim modelidan ta'limning rivojlanish modeliga yo'naltirish vazifasi turibdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagilar uchun javob beradi:

bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi;

bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan vaqtida ularning hayotini himoya qilishni va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, ruhiy va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga muvofiq kelmasligi;

bolalarni umumta'lim muassasalaridagi boshlang'ich ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda tayyorlash sifati;

ta'lim dasturlari tegishli sifatda va belgilangan hajmda amalga oshirilishini ta'minlash;

ushbu Nizomda nazarda tutilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish.

O'quv jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki ta'lim olayotgan bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchilikka zid harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun javob beradilar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turishni, ularni parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'limning mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim davlat ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturida belgilab beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejaları va jadvali bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga va boshqa qonunchilikka muvofiq ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan ishlash texnologiyalari, usullari va shakllari ularning psixofizik rivojlanish xususiyatlari, o'ziga xos imkoniyatlari va sog'lig'i holatidan kelib chiqqan holda, pedagog va tibbiy xodimlar tomonidan belgilanadi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogik kengashi bilan kelishiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o'yin hisoblanadi

Har bir yosh guruhidagi mashg'ulotlar, o'yinlarning har yilgi soni, davom etadigan davri va izchilligi maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bir tashkilotda birgalikda o'qishi va tarbiyalanishiga qaratilgan inklyuziv guruhlar tashkil etilishi mumkin.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lish vaqtiga qarab u erdagi guruhlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlar (kuniga 3-4 soat);

to'liq kunli guruhlar (kuniga 9, 10,5 va 12 soat);

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining:

bolalar kuniga 3-4 soat bo'ladigan guruhlarida — kunduzgi uyqu tashkil etilmaydi va bir martalik ovqatlantirish tashkil etilishi mumkin;

bolalar kuniga 9 — 10,5 soat bo'ladigan guruhlarida — uch martalik ovqatlantirish tashkil etilishi va kunduzgi uyqu uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak;

bolalar 12 soat bo'ladigan guruhlarida — to'rt martalik ovqatlantirish tashkil etilishi va kunduzgi uyqu uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarida kunduzgi va tungi uyqu hamda besh martalik ovqatlantirish tashkil etilishi uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.

Uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalar uzluksiz uxlamaydigan muddatning tavsiya etiladigan maksimal davomiyligi 5,5 — 6 soatni tashkil etadi.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazoratini, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo'lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta'lim sifat va darajasiga bo'lgan talablari, nizom, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta'sischi tomonidan belgilandi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilingan bo'lib, u yerga bolalar davlatning joylardagi vakolatli ta'limni boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tarafidan tashkil qilingan ruhiy- tibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

Maktabgacha ta'lim, olinish shakli va usullaridan qat'iy nazar, quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

- Bolalarni maktabda o'qishga maqsadli va tizimli tayyorlash;
- Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish;
- Bolalarni milliy va umuminsoniy yetuk va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;
- Bolalarda yuqori ma'naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish;
- Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlash;

Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz va qozoq tillarida olib boriladi.

Har bir bola alohida holda o'sadi va rivojlanadi, biroq shunga qaramay barcha bolalar rivojlanishning ma'lum ketma-ketlikdagi bosqichlaridan o'tadilar. Ushbu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar kuzatiladi.

Rivojlanish sohasidagi izlanishlar shundan dalolat beradiki, bola hayotining dastlabki to'qqiz yili o'sish davrining muayyan davomiyligida o'tadi, bu umumiy va oldindan aytib berish mumkin bo'lgan bosqichdir. Bu bosqichlar rivojlanishning har bir sohasidagi o'zgarishlar bilan ajralib turadi: jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv. Bolalar o'sishining o'ziga xosligi to'g'risidagi bilimlar tarbiyachilarga ta'lim muhitini yaratishga va faoliyatning muvofiq turlarini rejalashtirishga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Rivojlanish xususiyatlariga mos kelish usullarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun tarbiyachilar me'yordagi rivojlanishning borishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Bunda tarbiyachilar shuni yodda tutishlari lozimki, bolalar rivojlanishning bir xil bosqichini bosib o'tishlariga qaramasdan, ularda bu jarayon bir vaqtning o'zida kechmaydi. Bir xil yoshdagi bolalarda o'ziga xos individual farqlar bo'lishi muqarrar.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr MTT yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta maktabgacha ta'lim yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta maktabgacha ta'lim yoshilarga ajratish mumkin.

Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti- harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish

hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha ta'lim yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Maktabgacha ta'lim bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.[ 2.11; 67-89]

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashga yordam beradi.

Endi har bir davrni alohida ko'rib chiqamiz.

Uch yoshdagi bolalarning umumiy tavsifi. 3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar bir vaqtning o'zida tajovuzkor, muloyim va qo'pol bo'lishlari mumkin. Ular o'zlarini o'rab turgan borliqni tushunishga harakat qiladilar. Ularda o'z shaxsiy xayollarini aniq borliqdan ajratishlari qiyin kechadi. Ular o'z harakatlari ma'lum oqibatlariga olib kelishini tushuna boshlaydilar va o'zlari uchun xulq-atvor cheklashlarini o'rnatishga o'rganadilar. Bunda ana shu yoshdagi guruh bolalarida boshqalardan farq qiluvchi quyidagi holat namoyon bo'ladi: hozircha ular tobe va itoatkor ekanligini namoyon qilayotgan bo'lsalar, bir daqiqadan so'ng talabchan va injiq bo'lib qoladilar.

Uch yoshli bolalar nutq ko'nikmalarini jadallik bilan rivojlantiradilar, bunda ular bolalar uchun xos bo'lgan tildan me'yoriy tavsifiy tilga o'tib-qaytib turadilar. Ular qaysidir topshiriqni hal qilish chog'ida yoki o'yin paytida tez-tez ovoz chiqarib o'zlari bilan o'zlari gaplashadilar. Bunday yoshdagi bolalarda katta quvvat (energiya) zahirasi bo'ladi, biroq ular bu quvvatni uzoq vaqt bir ishga jalb eta olmaydilar. Odatda bunday bolalar tez-tez bir mashg'ulotdan ikkinchisiga o'tib turadilar. Ular alohida holda va guruhda o'ynaydilar. Oila a'zolarini hisobga olmaganda tarbiyachi bola mustahkam bog'lanish hissini tuyadigan birinchi katta yoshli kishidir.

O'quv-tarbiya jarayonida sog'lom avlodni shakllantirish mexanizmlari hisobga olish - ularning mayilli-ehtiyojli, hissiy-ixtiyoriy, kognitiv sohalariga mujassam tarzda ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshadi. Bolalarning individual xususiyatlarni inobatga olgan holda bilish qiziqishlarini rivojlantirishdan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad erkinlik hamda fikriy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish hamda sog'lom avlodni tarbiyalashdan iborat.

Istiqbolimiz sharofati tufayli ta'lim-tarbiya tizimi, bola tarbiyasi, farzandlar kelajagiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zlarining ma'ruza va asarlarida yuqoridagi masalalarni, ya'ni yoshlarni milliy tarbiyasi bugungi va ertangi kunimizda turgan dolzarb masala ekanligini alohida ta'kidlab o'tganlar.

Har bir pedagog kasbiy fanlarni o'zlashtirishi bilan birga, psixologiya fanini puxta egallagan bo'lishi va faoliyati jarayonida o'rganganlaridan xulosa chiqara olishi darkor. Maktabga qadam qo'yayotgan bugungi kunning bolasidan aniq bilim, fikrlash ko'nikmasi, yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, obyektiv olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisalarni mustaqil ravishda tahlil etishi bilan bir qatorda uning maktab ta'limiga shaxsiy-irodaviy, ma'naviy, intellektual, ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarligi talab etiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Shu sababdan, maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang - barangdir. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa biron ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi. Metod – grekcha «metodos» so'zidan olingan bo'lib, izlanish yoki



bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodini(usulini) - ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo'l-yo'rig'i sifatida ta'riflash mumkin.

To'rt yoshli bolalarning umumiy tavsifi. 4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar ko'pincha o'zlarini har narsaga qodir his etadilar va har qanday yangi muammolarni hal etishga kirishadilar. Boshqa kichik yoshdagi bolalardan farq qilgan holda bu yoshdagi bolalar barcha qatnashchilarga o'zaro tushunarli bo'lishini talab etadigan murakkab guruh o'yinlarini o'ynaydilar. Ular hamdardlik namoyon etadilar, o'zlari va boshqa kishilarning his-tuyg'ulari to'g'risida so'zlay oladilar.

Bu yosh guruhidagi bolalar cheklashlarni tekshiruvdan o'tkazadilar va shunga mos tarzda o'z xulq-atvorlarini o'zgartiradilar. Ularning o'zlari osongina yolg'on gapiradilar, biroq kattalar yolg'on gapirganlarida qattiq jahllari chiqadi.

4 yoshli bolalarning diqqatni bir yerga jamlab olishlari mumkin bo'lgan oraliq vaqt avvaligiga nisbatan qisqa bo'lsa-da, ular muammolarni hal etish uchun ma'lum tajribaga egadirlar. Agar mashg'ulot mavzui ular uchun qiziqarli bo'lsa bolalar diqqatni bir joyga uzoq vaqt jamlab tura oladilar. Bundan tashqari ular bir mashg'ulotdan olgan tajribalarini boshqa mashg'ulotga ko'chirgan holda ularni umumlashtirish qobiliyatiga egadirlar.

Bu yoshdagi bolalarni o'z tanalari va boshqalar tanalarining jismoniy holati juda qiziqtiradi: ular tanalaridagi tirnash va shilinishlardan juda xavfsirashlari, tashvishlanishlari mumkin. Ular ko'p narsalardan qo'rqadilar, qo'rqinchli tushlar ko'radilar.

4 yoshli bolalarda umumiy harakatlanish (motorika) sohasidagi ko'nikmalar tez rivojlanadi, ular jismoniy faollikni doimiy ravishda namoyish etadilar. Ularning quvvati tugamaydiganday tuyuladi. Ularning lug'at zahirasi kengayadi, bolalar to'g'ri tuzilgan jumlar bilan gapiradilar va ancha murakkab grammatik qurilmalardan foydalanadilar.

Besh yoshdagi bolalarning umumiy tavsifi

5 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar aksariyat hollarda yoqimtoy bo'lalilar va kattalarga yoqishga intiladilar. Ular yetarli darajada ijtimoiylashgan va bir vaqtning o'zida 3-4 nafar tengdoshlari bilan o'ynaydilar. Bolalar bu yoshda o'yin bo'yicha o'rtoqlari o'z hamjinslari bo'lishini ma'qul ko'radilar. Ularda yumor tuyg'usi mavjud bo'lib, tez-tez jo'ngina hazillarni o'ylab topadilar va ularni qayta-qayta takrorlaydilar. Ularga o'ynash yoqadi, biroq, ular albatta g'olib bo'lishni istaydilar va ustunlikka erishish uchun o'yin davomida o'z manfaatiga tez-tez qoidalarni o'zgartiradilar.

Bunday yosh guruhidagi bolalar diqqatni uzoq vaqt bir joyga jamlashlari mumkin. Ularda fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalari nisbatan yuqori darajaga ko'tariladi. Bola topshiriqni bajarishga chog'lanishi mumkin va uni belgilangan talablar asosida uddalashga harakat qiladi. Besh-olti yoshli bolalarda nutq yaxshi rivojlangan bo'ladi: ular gapirishni, so'z o'yinlarini yaxshi ko'radilar va ularni aniq ifodalaydilar. Ular ancha murakkab jumlar bilan gapiradilar va nutqiy xatolarni o'zlari tuzatadilar.

Bunday yosh guruhidagi bolalar jismoniy jihatdan olganda juda harakatchan bo'ladi, ular jismoniy mashqlar va muntazam sport mashg'ulotlariga qiziqqa boshlaydilar. Ularning harakatlanish (motorika) ko'nikmalari takomillashadi: ular kiyinish, qog'ozdan har xil shaklchalar qirqish, rasm solish va yozishda kamroq qiyinchilik sezadilar.

Bola o'zining o'tmishiga tushungan holda munosabatda bo'la boshlaydi, unga "ular hali kichkina bo'lgan" vaqtdagi turli tarixlarni aytib berish yoqadi.

Bolalar 5-6 yoshlarida navbati bilan hali ko'ngilchanlik, hali ko'ngilsizlikni namoyish etadi. Ular so'zma-so'z va aniq ifodalay oldadilar, ularga tashkiliy tizimi va davomiylik yoqadi.

Bola intellektual rivojlanish jarayonida o'z ajdodlari tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, atrof-muhitdagi narsalar va hodisalar bilan muloqotga kirishadi. Bu bolada faoliyat mayllarining rivojlanishi yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, til boyliklari, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, qobiliyatlarning o'sishida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda ularga oila a'zolari va tarbiyachilar yaqindan yordam beradilar

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqot orqali bola ahloq me'yorlari, kishilar orasidagi me'yorlarni anglaydi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlanadi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu yoshdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, muloqotga kirishish, o'zligini namoyon qilish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli, ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ehtiyoji kuchayadi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular bolalar bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar va bilish ehtiyojlari jadal tarzda kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022— 2026-yillarga m o'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi t o'g'risida»gi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

2. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.

3. Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022. 1-81-b;